

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”
Urganch davlat universiteti rektori
Prof. S.U.Xodjaniyazov

2025 yil 06

№ _____

2025 yil 06»

INSON EKOLOGIYASI

FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	700000 – Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari
Ta'lim sohasi:	710000 – Muhandislik ishi
Bakalavriyat yo'nalishi:	60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

Mazkur o'quv dastur Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti kengashining 2025-yil "28" 06 dagi 41-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

O'quv ishlari bo'yicha prorektor:

 S.U. Xodjanoyev

O'quv – uslubiy boshqarma boshlig'i:

 G.R. Matlatipov


Mazkur o'quv dastur Tabiiy va qishloq xo'jaligi fanlari fakulteti Kengashining 2025-yil "24" 06 dagi yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan. (41-sonli bayonnomasi).

Fakultet dekani:

 J.Sh. Ruzimov

Mazkur o'quv dastur "Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi" kafedrasining 2025-yil "23" 06 dagi yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan (41-sonli bayonnomasi).


"Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi" kafedrasining mudiri:

 S.Yu. Babajanova

Fan/modul kodi IEKB437	O'quv yili 2025-2026	Semestr 7	ECTS – Kreditlar 3	
Fan/modul turi Tanlov	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 2	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Inson ekologiyasi	30	60	90
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad. Talabalarga inson va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sir, antropogen faoliyat oqibatlari va barqaror rivojlanish tamoyillarini o'rgatish; yashash muhitining qulaylik darajasini baholash, ekologik xavflarni monitoring qilish va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Shuningdek, antropoekologik prognozlar tuzishda, zamonaviy statistik ma'lumotlar bazalari, GIS va ekologik-epidemiologik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini ochib berish.</p> <p>Fanning vazifalari: inson ekologiyasi fanining predmeti va metodologiyasini tushuntirish, ekologik xavf-xatarlarni baholash va ilmiy tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, global va lokal ekologik muammolarni o'rganish va baholash, aholi hayotiga ta'sir etuvchi tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va texnogen omillarni tahlil qilish, insonning o'zgaruvchan yashash sharoitlariga moslashish imkoniyatlarini tushuntirish, atrof-muhit va inson salomatligini ekologik hamda tibbiy parametrlar asosida baholash, inson ekologiyasi sohasida nazorat, monitoring va boshqaruv usullarini qo'llash, talabalarda ekologik madaniyat va mas'uliyatni shakllantirish.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>III. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>Inson ekologiyasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.</p> <p>Inson ekologiyasi fanining predmeti va mohiyati. Inson ekologiyasining ekologiya fanlari tizimidagi o'rni. Fanni o'qitishdan maqsad va uning asosiy yo'nalishlari. Inson ekologiyasi fanining vazifalari va ularning amaliy ahamiyati. Fanning zamonaviy rivojlanish istiqbollari va barqaror taraqqiyotdagi o'rni.</p> <p>Inson va atrof-muhit: tarixiy taraqqiyot bosqichlari va o'zaro ta'sir.</p> <p>Inson va tabiat o'zaro munosabatlarining dastlabki bosqichlari (ibtidoiy jamiyat davri). Qishloq xo'jaligi va dehqonchilik davrida insonning tabiatga ta'siri. Sanoat inqilobi va uning ekologik oqibatlari. XX asr va global ekologik muammolarning kuchayishi. XXI asrda inson va atrof-muhit o'zaro ta'sirining barqaror rivojlanish tamoyillari asosida rivojlanishi.</p> <p>Aholi soni dinamikasi va ekologik muammolar (demografiya va resurslar).</p> <p>Demografiya tushunchasi va aholi soni dinamikasining asosiy qonuniyatlari. Aholi sonining o'sishi va uning tabiat resurslariga ta'siri. Aholi zichligi, migratsiya va ularning urbanizatsiya jarayonlarining ekologik oqibatlari. Resurslardan foydalanish va ularning cheklanganligi. Aholi soni va resurslar muvozanatini ta'minlashda barqaror rivojlanish konsepsiyasining ahamiyati.</p> <p>Shahar va sanoat ekologiyasi: antropogen ta'sirlar va ekologik xavfsizlik.</p> <p>Shahar ekologiyasi tushunchasi va urbanizatsiya jarayonlari. Sanoat faoliyatining atrof-muhitga asosiy ta'sirlari. Antropogen omillarning havo, suv va tuproq sifatiga ta'siri. Shahar va sanoat hududlarida ekologik xavfsizlik muammolari. Ekologik xavfsizlikni ta'minlash yo'llari va barqaror rivojlanish strategiyalari.</p>			

<p>Inson salomatligi va ekologik omillar: ekologik stress, kasalliklar, adaptatsiya. Inson salomatligi va ekologik omillar o'rtasidagi bog'liqlik. Ekologik stress tushunchasi va uning turlari. Atrof-muhit ifloslanishining kasalliklar paydo bo'lishidagi roli. Inson organizmining moslashuv (adaptatsiya) mexanizmlari. Ekologik xavflarni kamaytirish va sog'lom muhitni ta'minlash yo'llari.</p> <p>Global ekologik muammolar: iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillikning yo'qolishi, chiqindilar muammosi. Global ekologik muammolar tushunchasi va ularning kelib chiqish sabablari. Iqlim o'zgarishi: sabablari, oqibatlar va insoniyat hayotiga ta'siri. Bioxilma-xillikning yo'qolishi va ekotizimlarga salbiy ta'siri. Chiqindilar muammosi: turkumlanishi, qayta ishlash va utilitatsiya masalalari. Global ekologik muammolarni hal etishda xalqaro hamkorlik va barqaror rivojlanish yo'llari.</p> <p>Barqaror rivojlanish konsepsiyasi va inson ekologiyasining istiqbollari. Barqaror rivojlanish tushunchasi va asosiy tamoyillari. Inson ekologiyasi va barqaror rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik. Ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik barqarorlik mezonlari. Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) va ularning amaliy ahamiyati. Inson ekologiyasi fanining istiqbollari va kelajak avlodlar uchun ahamiyati.</p> <p>III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi: Inson ekologiyasida tadqiqot metodlari. Ekologik izni hisoblash. Shahar ekologiyasi: transport va sanoat ta'sirini tahlil qilish. Atmosfera havosining ifloslanishi va uning ta'siri. Suv resurslaridan foydalanish va ekologik xavfsizlik. Aholi soni va migratsiyaning ekologik oqibatlar. Oziq-ovqat xavfsizligi va ekologik barqarorlik. BMTning barqaror rivojlanish maqsadlari va inson ekologiyasi. Amaliy mashg'ulotlar tashkillashtirishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalaniladi.</p> <p>IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar Talabalarning mustaqil ta'limidan asosiy maqsadlar quyidagilardan iboratdir: • yangi bilim olish usullarini egallash, jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish; • auditoriyadagi mashg'ulotlarda olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, kengaytirish va tartibga solish; • ma'lumotlar va maxsus adabiyotlar bilan ishlashni o'rganish; • o'quv materiallarini mustaqil o'rganish.</p> <p>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular: Inson ekologiyasi fanining rivojlanish tarixi. Inson va tabiat munosabatlarining bosqichlari. Antropogen omillarning tabiiy muhitga ta'siri. Biologik xilma-xillik va inson hayoti uchun ahamiyati. Iqlim o'zgarishi va insoniyat kelajagi. Suv resurslari tanqisligi va inson hayotiga ta'siri. Atmosferaning global isishi: sabab va oqibatlar. Demografik jarayonlar va ekologik muvozanat. Globalizatsiya va ekologik muammolar. Energiya manbalari va ularning ekologik oqibatlar.</p>

	<p>Radioaktiv ifloslanish va inson ekologiyasi. Oziq-ovqat xavfsizligi va ekologik muammolar. Urbanizatsiya va ekologik muvozanat. Inson va biosfera: ekologik iz. Ekotizim xizmatlari va inson farovonligi. Ekologik etika va insoniyat mas'uliyati. Atrof-muhit va inson sog'lig'i o'rtasidagi bog'liqlik. Ekologik xavfsizlik tushunchasi. Chiqindilar muammosi va qayta ishlash texnologiyalari. Transport va ekologik muammolar. Qishloq xo'jaligi faoliyati va ekologik muammolar. Kimyoviy moddalar ta'siri va ekologik xavfsizlik. Atrof-muhit monitoringi va inson ekologiyasi. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi. Yashil iqtisodiyot va ekologik samaradorlik. Insonning ekologik madaniyati va ta'limi. Xalqaro ekologik tashkilotlarning faoliyati. Orolbo'yi mintaqasining ekologik muammolari. O'zbekiston Respublikasida ekologik siyosat va inson ekologiyasi. Kelajak avlodlar uchun ekologik barqarorlik. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash, uni taqdimot qilish va boshqalar tavsiya etiladi.</p>
3.	<p>Fan o'qitilishining natijalari (shakllangan kompetensiyalar). Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: Inson ekologiyasining asosiy tushunchalari, predmeti va atamalarini biladi. Demografik jarayonlar va resurslardan foydalanish bilan bog'liq ekologik muammolarni tushuntira oladi. Atrof-muhit omillarining inson salomatligiga ta'siri haqida bilimga ega bo'ladi. Global ekologik muammolar (iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillik, chiqindilar)ni tushunadi. Barqaror rivojlanish konsepsiyasining mohiyati va tamoyillarini to'g'risida tasavvur va bilimga ega bo'lishi; Ekologik tushuncha va terminlarni to'g'ri qo'llay oladi. Demografik jarayonlarni statistik va analitik usullarda tahlil qiladi. Ekologik omillar va ularning salomatlikka ta'sirini baholay oladi. Global ekologik muammolarni ilmiy asosda izohlash va taqdim etish ko'nikmalariga ega bo'ladi. Barqaror rivojlanish tamoyillarini ilmiy tahlil qilish ko'nikmasini hosil qilishi; Ekologik muammolarni ilmiy adabiyotlar va ma'lumotlar bazalari asosida tahlil qiladi. Resurslardan foydalanish va aholi soni o'sishi o'rtasidagi bog'liqlikni amaliy misollarda ko'rsatadi. Inson salomatligiga ta'sir etuvchi ekologik omillarni monitoring qilishda zamonaviy metodlardan foydalana oladi. Xalqaro ekologik siyosat va barqaror rivojlanish maqsadlarini amaliy misollarda qo'llay oladi. Mahalliy ekologik loyihalarda barqaror rivojlanish konsepsiyasini tatbiq etishda ishtirok eta olishi kabi malakalarga ega bo'lishi kerak.</p>
4.	<p>Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • amaliy mashg'ulot (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</p>
5.	<p>Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'la aks</p>

	ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oralik nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishini topshirish.
6.	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Гора Е.П. Экология человека: учебное пособие для вузов. – Москва: Дрофа, 2007. 2. Малхазова С.М., Королева Е.Г. Окружающая среда и здоровье человека: учебное пособие. Москва: Географический факультет МГУ, 2011. 3. Прохоров Б.Б. Экология человека. Учебник – Москва: Академия, 2010. 4. Холмуратов Ш., Ибрагимов Г. «Инсон экологияси». Тошкент: Ўқитувчи, 2018 йил. 5. Мусаев Э.Р. «Экология человека». Тошкент: Фан, 2016 йил. 6. Бухалов Н.П. «Экология человека: Учебник для вузов». Москва: Академия, 2012. 7. Гиляров М.С. «Человек и биосфера». Москва: Наука, 2007. 8. Egamberdiev R., Jumaniyozova SH., Doschanova M. «Inson ekologiyasi va uning muammolari». Urganch-2016. 9. T.Raximov, Tilovov. «Inshi ekologiyasi». Qarshi-2015. <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Salimov X.V. Ekologiya (o'quv qo'llanma). Navoiy-2015 yil 2. Nigmatov J., Musayev. Geoekologiya asoslari va tabiatdan foydalanish. TOSHKENT, "NISO POLIGRAF", 2017. 3. Barqaror rivojlanishning geoekologik jihatlari. A. Nigmatov va boshqalar. Toshkent-2006. 4. Алексеева Т.И. Адаптация человека в различных экологических нишах Земли. – Москва: МНЭПУ, 1998. 5. Прохоров Б.Б. Социальная экология. Учебник для студ. вузов. – Москва: Издательский центр «Академия», 2005. <p style="text-align: center;">Axborot manbalari:</p> <p>www.zivonet.uz www.eco.uz www.uznature.uz www.pedagog.uz www.lex.uz</p>
7.	<p>Mazkur o'quv dastur Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti kengashining 2025-yil "28" 06 dagi 11-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.</p> <p>Usgbu o'quv dasturi M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Ekologiya va AMM ta'lim yo'nalishi uchun "Inson ekologiyasi" fanidan tuzilgan o'quv dasturi asosida tayyorlandi</p> <p>https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/bak_E/</p>
8.	<p>Fan/modul uchun mas'ul: A.A.Masharipov - UrDU, "Ekologiya va HFX" kafedrası dotsenti</p> 
9.	<p>Taqrizchilar: Sh.K.Babadjanova – UrDU "Ekologiya va HFX" kafedrası dotsenti, PhD.</p>